

**TA'LIM, TARBIYA JARAYONIDA ILMIY DUNYOQARASHNI
SHAKLLANTIRISH**

**Termiz davlat pedagogika instituiti Boshlang'ich
ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi Xo'jamurodova Farzona
Ilmiy maslahatchi: v.b dotsent(PhD) M. Xaydarova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoqarash tabiatning, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab turuvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi bo'lib, bu tizim doirasida falsafiy, iqtisodiy, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'lishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, sinf, o'quvchi, ilmiy dunyoqarash, tarbiya, ma'lumot, natija, mantiqiylik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dunyoqarash izchil, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanishida o'quv muassasalarida o'qitiladigan gumanitar, tabiiy va ijtimoiy fanlarni puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Dunyoqarashni mohiyatiga ko'ra 2 guruhga: ilmiy va oddiy dunyoqarashga ajratiladi.

Bola to 7 yoshgacha oddiy dunyoqarashga ega bo'ladi. Masalan, bola ovqatlanish oldidan qo'llar yuvilishi kerakligini, yomg'ir yog'ayotganini biladi. Lekin hali ilmiy dunyoqarashga ega bo'lmagani uchun yomg'ir qanday paydo bo'lishini yoki qo'llarni yuvish gigiyenaga kirishini bilmaydi. 7-11 yoshlar oralig'ida esa ilmiy dunyoqarashi shakllanib, har narsa haqida ilmiy tushunchalarga ega bo'ladi. Bolaning o'zi amalga oshirayotgan har bitta harakat oddiy dunyoqarashga misol bo'la oladi. Bajarayotgan ishlari haqida to'liq ma'lumotlarni qanday qilib, qanday amalga oshirilgani haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi esa ilmiy dunyoqarash bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun o'zi bilgan narsalarni to'liq ma'lumotlar bilan asoslab berishning o'zi kifoya. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi, ilmiy bilimlarni o'zlashtirib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan bola tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarni to'g'ri talqin qila oladi, dalillarga ega bo'lmagan voqeliklarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Yana shuni aytishimiz mumkinki, ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan bola mustaqil fikrga ega bo'ladi va erkin gapira oladi, har xil turdagi oqimlar, mistik g'oyalarga aldanmaydi, ijtimoiy jamiyatdagi voqealarni aniq bir qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchisida kelajakka ishonchi bo'ladi. Ilmiy dunyoqarash doimo vorislik asosida rivojlanadi. Yangi davr dunyoqarashining ildizi o'tmish dunyoqarashi bo'lib, uni kerakli hayotbaxsh ozuqa bilan ta'minlaydi. Ilmiy dunyoqarashni hammavaqt bir zaylda, o'zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar to'la bo'lmagan bilimlardan to'la bilimlarga qarab borish kerakligini bolalarga tushuntirish kerak va yo'nalishlar berib borilishi kerak.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq yo'li bilan bo'ladi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o'zi to'plagan bilimlariga tayanmog'i kerakligini tushuntirish kerak. Ilmiy dunyoqarash hammaga ham nasib qilavermaydigan oddiy hodisa bo'lmay, insonning nazariy va amaliy bilim darajasiga bog'liq. Shuning uchun bolani nazariy va amaliy bilimlar bilan ta'minlab borishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, ertak, hikoya va qissalardan ko'proq bahramand qilish kerak. Masalan, "Hadis" lar, "Kalila va Dimna", "Qovusnoma" va boshqa hissiy, mantiqiy bilishga tegishli matallar, ertaklar bilan tanishtirilib borish kerak.

O'quvchilarga dunyoqarash faqat insongagina xosligini, hayvonot dunyosi, boshqa narsalar, buyumlar va mavjudot uchun bu hol begona ekanligini tushuntirib boriladi. Yoshlikdan tanishtirib borilsa, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bola dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya bolaga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish;
- ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;
- mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish;

Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Farobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Farobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqobolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqobolning belgisidir.

(Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Ilmiy dunyoqarash xususida gap borganda avvalo, o'quvchilar, yoshlar, unga zid, qaramaqarshi turgan diniy, fantastik, mifologik, ateistik va boshqa g'ayri ilmiy dunyoqarashlar borligi uchun ham ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurligini tushunmoqlari, bu haqda to'g'ri fikr yuritishni o'rganmoqlari kerak. Dunyoqarash dunyoni bilish orqaligina shakllanadigan juda murakkab dialektik jarayondir. Bilish dunyoning turli tomonlari haqidagi turli fanlar bergan ishlar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ilmsiz kishilarda dunyo to'g'risida ilmiy dunyoqarash bo'lmaydi. Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy tasavvurlarning yig'indisidan iboratdir. Dunyoqarash ayrim kishilarning, ijtimoiy guruhning, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo'nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilgach, insonning yoki guruhning tevarak atrofidagi ijtimoiy va tabiiy borliqqa bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11)*, 90-93.

2. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. In *Conference Zone* (pp. 97-98).

3. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 95-96).

4. Khabibullayevna, H. M. (2021). Scientific-Theoretical Fundamentals Of Improving The Methodological Training Of Future Primary School Teachers To Teach The Subject Of Education. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10)*.

5. Khaydarova, M. H. (2020). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATION COMPEPENCIES IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Восточно-европейский научный журнал, (5-6 (57))*, 37-39.

6. Khaydarova, M. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences, 27*, 45-48.

7. Xaydarova, M. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O 'QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches, 2(1)*.

8. Shamsiddinova, M., & Xaydarova, M. (2023). INNOVATION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN INTERFAOL METODLAR. *Interpretation and researches*, 1(1).

9. Xaydarova, M. (2023). TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).

10. Xaydarova, M. (2023). TARBIYA FANINI O'QITISHGA METODIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH. *Interpretation and Researches*, 1(1).

11. Хайдарова, М. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(10).

12. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDAGOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.

13. Jahonova, X., & Xaydarova, M. (2023). TA'LIMDA STEAM TEKNOLOGIYASI. *Interpretation and Researches*, 1(1).

14. Xaydarova Mahliyo, & Mirzayeva Nodira. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI. *International Conference on Multidisciplinary Science*, 2(2), 133–137.

